

INTELLEKT VA KREATIVLIKNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI VA JIHATLARI

**Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi Biloldinova Shoxsanam**

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellekt va kreativlikning nazariy asoslari va yoshga xos bo’lgan jihatlarini namoyon bo’lishi haqida ma’lumotlar ko’zda tutilgan. Shuningdek tafakkur tarixida intellekt to’g’risida fikr-mulohazalar turlicha bo’lgan. O’rta asrlarda intellekt irodaga bo’ysunadimi yoki iroda intellektgami degan masala bo’yicha qizg’in munosabatlar bildirilgan.

Kalit so’zlar: Intellekt, tafakkur, sun’iy intellekt, kreativlik, iroda, intellekt koeffitsienti, intellekt testi.

O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 6-noyabr 2020-yildagi " Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'rosida'gi PQ-4884-son qarorida ta'lim sifatini oshirish, ilm fanni rivojlantirish, bitiruvchilarning bantligini ta'minlash, pedagog xodimlar va olimalarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyat ustidan ta'sircham parlament nazoratini yo'lga qo'yish- deb kelyirilgan bandlari ham bevosita kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarimizni aqliy rivojlanishiga qaratilgan.

Intellekt - (lotincha intellectus - aql, idrok, zehn) -keng ma’noda: kishining voqea-hodisa mohiyatini to’laligicha bilishga asoslangan va u orqali namoyon bo’ladigan faoliyati; tor ma’noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyati. Intellekt kishilarning aql, idrok, zakovat, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham bildiradi, tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, obstraksiya, tushuncha, hukm, va hokazo.) orqali asosli bilimga ega bo’lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etib chiqish qobiliyatini ham anglatad. Masalan: ba’zi insonlar o’zga joyga tashrif buyurganda, o’sha joyga va odamlariga ham ko’nikishi qiyin bo’ladi. Aksincha ammo ba’zilari bo’lsa makonga va zamonga tez moslashadi, tengdoshlar davrasida ham tez kirishubchan, muloqot jarayoni ham qiyin kechmaydi. Intellekt - inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashtirish ham hisoblanadi. V. Shterni, J. Piaje va boshqa bir qancha olimlar ham intellektni insonlarning yangi hayotiy sharoitlarga moslashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Tafakkur tarixida intellekt to’g’risida fikr-mulohazalar turlicha bo’lgan. O’rta asrlarda intellekt irodaga bo’ysunadimi yoki iroda intellektgami degan masala bo’yicha qizg’in mulohazalar avjiga chiqqan. O’sha davrlarda intellekt bilishning eng yuksak - ilohiy usuli sifatida inson tafakkuriga qarshi qo’yilgan. Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlaridan biri Duns Skot va Uilyam Okkam bo’lsa ikkinchi qarash tarafdorlaridan biri Foma Akviniskiy edi. Hozirgi zamon falsafasida intellekt ham, iroda ham mavjud holatga asoslangan holda namoyon bo’ladi, yoki Intellekt ma’naviyatga taalluqli bo’lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resursinsonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida avvalo o’z aqliy omilkorlik salohiyatini turmush tarzini turli yo’nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish mustahkamlash imkoniyatidir. Inson bosh miyasi qobig’oda o’n to’rt milliarddan oshiq neyronlar mavjud. Ilarning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to’la boshqarishdan iborat. Kishining qilayotgan har bir harakati neyronlar faoliyati mahsulodir. Bu jahon tibbiyotida chuqur o’rganilgan va to’la tan olingan haqiqatdir. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, insonning intellektual o’zligini namoyon qilishda uning imkoniyatlari - resurslarining o’rni beqiyos. Lekin inson ana shu intellektual imkoniyatlar, ya’ni resurslarning bor yo’g’i 4-4,5 foizidan foydalanadi. Shundan 4 foizini 8-11 yoshgacha bo’lgan davrda oladi va qolgan yarim foizini butun umri davomida qabul qiladi. Tabiatan iqtidorli kishilar esa o’sha qolgan yarim foiz ma’lumotni 11 yoshdan keyingi umriga togri taqsimlay olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Inson bosh miyasining fiziologik tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, uning miyasidagi intellektual kuch atom yadrosidagi beaiyos kuchga teng bo’lar ekan. Bugungi kundagi ilm-fan xulosasiga ko’ra insoniyat tarixida atigi 400 ga yaqin kishi daholik maqomiga sazovor bo’lgan, xolos. Bu esa daho daho insonlarni tarbiyalash qanchalik qiyin ish ekanini ko’rsatadi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Intellekt testi - insondagi aqliy qobiliyatlarni boshqalarning aqliy qobiliyati bilan solishtirish yo’li orqali amalga oshadi.

Aqliy yosh - fanga Bine tomonidan kiritilib, test natijalarining darajasiga mos keluvchi yosh.

Stenford-Bine testi - Bine testining amerikacha versiyasi bo’lib, Stenford universitetida Lyuis Terman tomonidan ishlab chiqilgan.

IQ - koeffitsienti - aqliy yoshni xronologik yoshga bo’lib uni 100 ga ko’paytirishimizdan hosil bo’ladi. Asosan o’rta yoshli odamning IQ koeffitsiyenti 100 ga teng bo’lishi kerak.

Gap shundaki, daholarni tarbiyalash, voyaga yetkazishda nafaqat bir oila yoki bir xalqning, balki butun insoniyatning ma’naviy yutuq va tajribalaridan foydalanish kerak bo’ladi. Sun’iy intellekt - olingan ma’lumoylarni umumlashtirib oldindan taxmin qila olish qobiliyati va shunga mos keladigan dastur yozish. Hozirgi zamonda sun’iy intellekt ham ancha rivojlangan. Sun’iy intellekt natijasida bir qancha yoshlar o’z qobiliyatlaridan foydalangan holda mashinalar va turli-tuman texnologiyalarini kashf qilishmoqda. Sun’iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. U kimning qo’lida, nima maqsadda foydalanishiga bog’liqdir. Sun’iy intellektning bir qator ijobiy tomonlari shindaki, uning yordamida odamlar kosmos va okeanlarni tadqiq qilish, firibgarlikni aniqlash va bilimlarni tekshirishlari ham mumkin.

Pisixologiyada Intellekt va kreativlik aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud. D. Veksler, G. Ayzenk, L. Termen va boshqalar bir qancha olimlar intellekt va kreativlikni oliy darajasidagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning oliy darajasi. Bundan kelib chiqib kreativlikni intellekt hosilasi desak mubolag’a bo’lmaydi. Yuqori darajadagi intellekt - yuqori intellektni, quyi darajadagi intellekt - quyi intellektni yuzaga keltiradi. Insonda intellekt qanchalik yuqori bo’lsa, unda kreativlik ham shuncha yuqori boladi. Zero, bu tushunchalar bir-biri bilan o’zaro bog’liq. Bir qancha olimlar intellekt koeffitsientini aniqlash maqsadida bir qancha tadqiqot olib borishgan. Ulardan biri amerikada minglab maktab o’quvchilaridan IQ (intellekt koeffitsienti) ni aniqlab olishgan. Ularning IQ siga qarab guruhlarga ajratishgan va 30, 40 yil davomida kuzatishgan. Ulardan IQ si yuqori bo’lgan o’quvchilar yuqori natijalarga, ko’plab yutuqlarga erishgan. IQ si past bo’lgan o’quvchilar kam yutuqqa erishgan. Yuqorida ta’kidlanganidek intellekt va kreativlik bir-biri bilan o’zaro bog’liq. O’zbekistonda ham IQ darajasini aniqlarda bir-qancha sa’y-harakatlar olib borildi. Maktablarda o’qituvchilar bu testni o’quvchilar orasida ko’p o’tkazadi. Shuning natijasida qaysi o’quvchi faol qaysilari sust va yana qaysilar zukko, bilimdonligini aniqlab, bilib oladi. Bu test o’quvchilarga ham ma’qul bo’ladi, o’qituvchisidan qayta-qayta shu metodni o’tkazishlariga istak bildirishdi. Ammo intellekt va kreativlikni qarama-qarshi qo’yan olimlar ham bor. Bulardan biri, J. Gilvord bo’lib, u o’z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida qiyoslaydi. Bular: konvergent va divergent tafakkurlar. Konvergent tafakkur masalalarni yechishda barcha mavjud usullardan eng maqbulini olish. Konvergent intellekt asosida quriladi.

Divergent tafakkur - turli masalalarni yechishda turlik yechimlarni qidirish. Divergent kreativlik asosida quriladi. Demak, intellekt va kreativlik umuman ko’rinishda ikki xil qobiliyatlar bo’lib, ularni ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog’lash mumkin. Kreativlik insondagi bor ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni cheksiz modelini yaratishdan, Intellekt esa bu qayta ishlangan ma’lumotlarni amaliyotda qo’llay olish, atrof-muhitga moslashtirishdan iborat. Biz yuqorida kreativlik haqida so’z yuritdik. Tabiiyki, kreativlik o’zi nima degan savol tug’iladi. Kreativlik - bu insonning biror yangilik yaratishi, an’anaviylikdan chetga chiqishi, bir so’z bilan aytganda ijodkorlik degani. Malasan: bir stulni oladigan bo’lsak, uning qanda ko’rinishda ekanligini bilamiz. Ammo kreativlik bilan yondashadigan bo’lsak, u boshqa ko’rinishda bo’lishi mumkin. Oyoqlari to’rtta emas balki uchta bo’lishi. Bu insonning kreativlik darajasiga qarab bo’ladi. Insonda intellekt qanchalik yuqori bo’lsa kreativlik ham shunchalik yuqori bo’ladi.

Har bir insonning qobiliyatlari turli yo’nalishlarda bo’ladi. Kimdir aniq fanlardan, kimdir gumanitar fanlardan qobiliyati bo’ladi. Spirimenning fikricha, har bir insonning bir-biridan ajratuvchi qobiliyatlari bo’ladi. Masalan: usta rassomnimatematik masalalarni yechishda esankirab qolishi, matematiklarni esa boshqa bir soha oldida ojiz qolishi. Insonlarning umumiy qobiliyatlari ham bo’ladi, ammo shular ichida qaysi yuqori ekanligini aniqlab o’sha sohaga yo’naltirish bugungi kunning ta’lim tarbiya jarayonida ko’zga tashlanadigan muammolar sirasiga kiradi. Agar bolaning qobiliyatini to’g’ri yo’naltirilsa, ulardan kelajakda intellektual kreativ mutaxassis chiqadi. Endi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

emotsional Intellekt haqida gapirsak. Ba’zi olimlarning fikricha emotsional intellekt - intellektdan yuqoriroq tushuncha. Lekin shuni aytish lozimki, emotsional intellekt bizni bor xohish va qiziqishlarimizni aktivlashtiradi. Muammolarni kamroq o’ylashga majbur qiladi. Shu o’rinda yana bir savol tug’uladi. Intellekt irsiyatga bog’liqmi? Intellekt irsiyatga bog’liq. Bunday deyishga sabab, bir onafan tug’ilgan egizaklarning IQ - darajasi tekshirilganda, natija deyarli bir xil. Xuddi shu egizaklarni boshqa-boshqa oilalarda tarbiyalashganda baribir bir xil.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik bu ijodkorlik degani. Har bir insonda kreativlik yuqori bo’lishi uchun juda ko’p o’z ustida ishlashi kerak. Insonlarning kasbiy mahorati ham uning kreativ fikrlashi, kreativ yondashishiga bog’liq desa mubolag’a bo’lmaydi. Agar biz har bir bolada intellekt va kreativlikni yaxshi rivojlanishiga o’z hissamizni qo’shsak, muhtaram prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev aytganlaridek, uchinchi renesans vakillari yetishib chiqadi. Buning uchun bolalarning qobiliyatini to’g’ri yo’naltirilsa, ular kelajakda o’z kasbining yetuk mutaxassisi bo’lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Х. Югай "Общая психология" --- Ташкент..2014
2. Davletshin M.G va boshqalar. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya. T..2004
3. <https://oyina.uz>
4. Сирожиддинова, Ф. Х. (2022, August). Раҳбар бошқарувида мулоқот маданияти ва таъсир кўрсатиш омиллари: Сирожиддинова Фируза Хосилбековна, АндМИ “Гуманитар фанлар” доктаранти. In Научно-практическая конференция.